**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bank moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda investitsiya portfelini yuritishning o'rni, tijorat banklari investitsiya portfelining holati hamda uning aktivlar likvidligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot materiali va metodlariga ko'ra, mavzu yuzasidan xorijiy hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan ta'rif va ilmiy qarashlar o'rganilib, muallif tomonidan ularning mazmuni sharhlab ochib berilgan.

Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish hamda aktivlarni boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini shakllantirish yuzasidan taklif va amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish tizimini rivojlantirish, samarali boshqaruv usullarini qo'llash, nazariy va amaliy bilimlarni kengaytirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, aktiv, majburiyat, depozit, kapital, moliyaviy resurslarni boshqarish, bank aktivlari, raqamli aktivlar, likvidlik, investitsiya portfeli, qimmatli qog'ozlar.

**Abstract.** This article analyzes the role of investment portfolio management in ensuring the effective management of bank financial resources, as well as the current condition of commercial banks' investment portfolios and their impact on asset liquidity. Based on the research materials and methods, definitions and scientific viewpoints proposed by both foreign and domestic economists were examined, interpreted, and conceptually clarified by the author.

In addition, the article provides proposals and practical recommendations for developing a draft regulatory legal framework aimed at improving financial resource management in commercial banks of the Republic of Uzbekistan, as well as for forming a comprehensive program of measures focused on asset management enhancement. Based on the research findings, directions for developing financial resource management systems in commercial banks, applying effective management methods, and expanding theoretical and practical knowledge are outlined.

**Keywords:** commercial bank, asset, liability, deposit, capital, financial resource management, bank assets, digital assets, liquidity, investment portfolio, securities.

**Аннотация.** В статье проанализирована роль управления инвестиционным портфелем в обеспечении эффективного управления финансовыми ресурсами банка, а также состояние инвестиционных портфелей коммерческих банков и их влияние на ликвидность активов. На основе материалов и методов исследования изучены определения и научные подходы зарубежных и отечественных экономистов, их содержание раскрыто и интерпретировано автором.

Кроме того, в работе представлены предложения и практические рекомендации по разработке проекта нормативно-правового документа, направленного на совершенствование управления финансовыми ресурсами коммерческих банков Республики Узбекистан, а также по формированию комплексной программы мероприятий по управлению активами. По результатам исследования определены направления развития системы управления финансовыми ресурсами, внедрения эффективных методов управления и расширения теоретических и практических знаний в данной сфере.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, актив, пассив, депозит, капитал, управление финансовыми ресурсами, банковские активы, цифровые активы, ликвидность, инвестиционный портфель, ценные бумаги.



## KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi va bugungi kunda ushbu tizim izchil ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy raqobat muhitida banklarning eng muhim vazifalaridan biri – mijozlar va kontragentlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi<sup>1</sup> Farmoniga muvofiq, tijorat banklari aktivlarining sifatini oshirish, ularning likvidligini ta'minlash, kapitallashuv darajasini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [1]. So'nggi yillarda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, bank aktivlari likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va barqarorligini ta'minlash borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bank aktivlari likvidligi – tijorat banklari aktivlarining qisqa muddat ichida pul mablag'lariga aylanish qobiliyatini anglatadi. Bu esa bankning barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarishini ta'minlaydi hamda uning ishonchlilik darajasini va iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda resurslar yetarliligini belgilaydi.

Bank aktivlari likvidligi tijorat banklarining depozitorlari, kreditorlari va aksiyadorlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb etish, kreditlash va investitsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Shuningdek, Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasining Bazel III talablari doirasida banklar likvidligiga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Xalqaro tavsiyalarga muvofiq, tijorat banklari likvidligini baholash uchun yangi me'yoriy ko'rsatkichlar joriy etilgan. Xususan, joriy likvidlik va leveraj ko'rsatkichlaridan tashqari, likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) hamda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) amaliyotga tatbiq etildi. Markaziy bank tomonidan ushbu me'yorlarning bajarilishi ustidan monitoring olib borilishi banklar likvidligi va aktivlarining likvidlik darajasini belgilangan standartlarga muvofiq holda ta'minlash imkonini beradi.

Bank aktivlari likvidligining barqarorligi bank mijozlarining ishonchini oshiradi va bank tizimida moliyaviy resurslar oqimining kengayishiga xizmat qiladi. Likvidlik darajasining pasayishi esa moliyaviy resurslar harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, bank aktivlari likvidligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, ularning ta'sir darajasini aniqlash hamda qaysi omillarni optimallashtirish orqali eng yuqori samaraga erishish imkonligini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot obyekti sifatida "resurs" tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratiladi. "Resurs" atamasi fransuzcha "ressource" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi vositalar, imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromad manbai, xomashyo kabi ma'nolarni anglatadi [3].

Iqtisodiy adabiyotlarda "resurs" tushunchasi turli kontekstlarda — tabiiy resurslar, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda qo'llaniladi. Iqtisodiy resurslar jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarning asosiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. Ulardan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslarning muhim tarkibiy qismi moliyaviy resurslar bo'lib, ular iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun yo'naltiriladigan pul-kredit va budjet mablag'laridan iboratdir.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbalari sifatida vaqtincha bo'sh pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning jamg'armalari, chek-depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqa manbalar e'tirof etiladi. Ushbu resurslar iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqib, moliyaviy resurslarning ajralmas qismi bo'lgan bank resurslariga alohida e'tibor qaratiladi. Respublikamizda i.f.n. B. Babayev tomonidan bank resurslarining mohiyati, tarkibi, ularni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar hamda ularni takomillashtirish yo'llari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [4]. Muallif tomonidan bank resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalalariga tizimli yondashuv berilgan.

Shu bilan birga, bank resurslarining mohiyati va ulardan foydalanish mexanizmlarini yanada chuqurroq tahlil qilish zarurati mavjud. Xususan, pul bozorini shakllantirish va pul resurslari bilan operatsiyalarni samarali amalga oshirish jarayonida banklar strategiyasini ishlab chiqish uchun bank resurslari tushunchasi hamda ular bilan bog'liq operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini kengroq yoritish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Hatto so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, o'quv qo'llanmalari va monografiyalarda moliyaviy resurslar, kredit resurslari, moliyaviy mexanizmlar hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga keng e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, bank resurslarini boshqarish masalalarini kompleks yondashuv asosida o'rganish yetarli darajada yoritilmaganligi kuzatiladi [6].

1 <https://lex.uz/docs/-4811025>

Rossiyalik olim O. Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki "bank resurslari" bank ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan mablag'lar yig'indisidan iborat bo'lib, ular bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladi [7]. Shunga o'xshash yondashuv boshqa mualliflarning ilmiy ishlarida ham uchraydi. Tijorat banklari resurslarining o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllanishini ta'kidlash, avvalo, ularning manbalariga e'tiborni qaratadi.

Bank resurslarining shakllanishi bank faoliyatini tashkil etish va yuritish jarayonida yuzaga keladi. Bank tashkil etilishining dastlabki bosqichida, eng avvalo, ustav kapitali mavjud bo'lishi zarur. Keyingi bosqichlarda esa faoliyatni kengaytirish va aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb etish talab qilinadi. Shu bois, tijorat banklari resurslarining mohiyatini yoritishda nafaqat ularning manbalari, balki ushbu mablag'larning bankning maqsadli faoliyati uchun zarurligi va ulardan samarali foydalanish masalalarini ham inobatga olish muhimdir.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank faoliyati uchun yetarli miqdorda barqaror va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni, ya'ni "uzoq muddatli mablag'lar"ni jalb etishga qaratilmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish banklarning umumiy barqarorligi va rentabelligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarishning asosiy yo'nalishlari va strategik elementlari quyidagilardan iborat:

- Likvidlikni boshqarish;
- Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish;
- Kapitalning yetarliligini ta'minlash;
- Risklarni boshqarish;
- Xarajatlarni nazorat qilish;
- Investitsiyalar va aktivlarni boshqarish;
- Me'yoriy-huquqiy talablar ijrosini ta'minlash;
- Stress-test va ssenariy tahlillarini amalga oshirish;
- Monitoring va hisobot tizimini takomillashtirish;
- Strategik va operativ rejalashtirish.

Likvidlikni boshqarish tijorat banklari uchun ustuvor vazifalardan biridir. Banklar, ayniqsa muddatsiz depozitlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish va boshqa qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun yetarli likvid mablag'larga ega bo'lishi zarur. Likvidlikni boshqarish diversifikatsiyalangan moliyalashtirish bazasini shakllantirish, pul oqimlarini doimiy monitoring qilish, favqulodda vaziyatlar uchun moliyalashtirish rejalarini ishlab chiqish hamda zarurat tug'ilganda Markaziy bank resurslaridan foydalanish kabi strategiyalar orqali amalga oshiriladi.

Likvidlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati yuzasidan iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bildirilgan. Jumladan, Sh. Abdullayeva likvidlikni aktivlarni pul mablag'lariga aylantirish imkoniyati, bankning Markaziy bank va vakil banklardagi mablag'laridan oqilona foydalanishi hamda likvid aktivlarini sotish qobiliyati sifatida izohlaydi [8]. A. Omonov esa likvidlikni bankning mijozlar tomonidan kutilgan va kutilmagan holatlarda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondirish qobiliyati sifatida talqin etadi [9].

Shuningdek, B. Izbosarov tijorat banklari likvidligini tartibga solishni bank faoliyatining foydalilik darajasini saqlagan holda barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyatini ta'minlash jarayoni sifatida izohlaydi [10]. Ushbu yondashuvlar bank likvidligini boshqarishning nafaqat moliyaviy, balki strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishga nazariy yondashuvlar va ularning evolyusion rivojlanishi hamda respublikamiz tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishga doir nazariy yondashuvlar va ularning evolyusion rivojlanish bosqichlari o'rganildi hamda tegishli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish, iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

### Tahlil va natijalar

Bank aktivlari likvidligi, avvalo, aktivlarning sifati va ularning risk darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Bank aktivlari likvidligi deganda bank tomonidan joriy va istiqboldagi majburiyatlar hamda to'lovlarni, shuningdek, kreditlar bo'yicha mijozlar talablarini o'z vaqtida bajarish maqsadida zarur paytda va yetarli miqdorda aktivlarni sezilarli yo'qotishlarsiz tezkor ravishda pul mablag'lariga aylantira olish qobiliyati tushuniladi.

Bank aktivlari likvidligini, demakki, butun bank tizimi likvidligini ta'minlashda markaziy banklar muhim rol o'ynaydi. Ular monetar siyosat instrumentlari orqali banklarning likvidlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi, tijorat



banklari uchun likvidlik me'yorlarini belgilaydi hamda ushbu me'yorlarning bajarilishi ustidan tizimli monitoring olib boradi.

Endi O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib, ushbu ko'rsatkichlarning bank aktivlari likvidligiga ta'sirini, ya'ni tijorat banklari aktivlari sifati, o'z mablag'lari va depozitlarning bank likvidligiga ta'sirini o'rganamiz.

Tadqiqot doirasida 6 ta yirik tijorat bankining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi hamda bu ko'rsatkichlarning bank aktivlari likvidligiga ta'siri baholandi. Mazkur 6 ta tijorat bankining jami aktivlari bank tizimi umumiy aktivlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Shu bois, ushbu banklar bo'yicha olingan natijalar respublika bank tizimining umumiy holati yuzasidan asosli xulosa chiqarish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Demak, mazkur banklarning aktivlar sifati, depozitlari va o'z mablag'lari tarkibidagi o'zgarishlar tijorat banklari likvidli aktivlari ulushining o'zgarishiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini aniqlash orqali bank tizimi miqyosida mazkur omillarning ta'siri haqida xulosa qilish mumkin.

Daromad keltiruvchi aktivlarning jami balansdagi ulushi (X1), daromad keltirmaydigan aktivlarning jami balansdagi ulushi (X2), depozitlarning jami balansdagi ulushi (X3), o'z mablag'larining jami balansdagi ulushi (X4) o'zgarishining likvidli aktivlarning jami balansdagi ulushi (Y) o'zgarishiga bog'liqligini aniqlash maqsadida korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirildi (1-jadval).

#### 1-jadval. Tijorat banklarida likvidli aktivlar ulushining omillarga bog'liqligi bo'yicha regression tahlil natijalari<sup>2</sup>

Regression tahlil	
Ko'plik R	0,983773
R-kvadrat	0,967809
Me'yorlashgan R-kvadrat	0,967178
Standart xatolik	0,040235
Kuzatuvlar	209

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, kuzatuvlar soni 209 tani tashkil etgan holda, determinatsiya koeffitsienti ( $R^2 = 0,9678$ ) ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich modelning yuqori aniqlik darajasiga ega ekanligini, ya'ni natijaviy ko'rsatkich o'zgarishining 96,78 foizi tanlangan omillar hisobiga izohlanishini bildiradi. Mazkur holat regressiya modelining tadqiq etilayotgan jarayonni yetarli darajada aks ettirganini va iqtisodiy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

#### 2-jadval. Regressiya modelining dispersion (ANOVA) tahlili natijalari<sup>3</sup>

Dispersion tahlil					
	df	SS	MS	F	Ahamiyatligi F
Regressiya	4	9,928456	2,482114	1533,28316	6,1373E-151
Qoldiq	204	0,33024	0,001619		
Jami	208	10,2587			

Dispersion tahlilida asosiy e'tibor F (Fisher koeffitsienti) testiga qaratiladi. Mazkur test regressiya modelining umumiy ahamiyatligini hamda o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli bog'liqlik mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Agar F mezon bo'yicha ahamiyatlilik darajasi (Significance F) 0,05 dan kichik bo'lsa, model statistik jihatdan ahamiyatli deb e'tirof etiladi. Ya'ni, mustaqil o'zgaruvchilar natijaviy ko'rsatkichga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Bizning tahlil natijalarimizda F ko'rsatkichining ahamiyatlilik darajasi 0,05 dan ancha kichik ekani kuzatiladi. Bu esa regressiya modeli statistik jihatdan ishonchli va ma'noga ega ekanligini, shuningdek, o'zgaruvchilar o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi (3-jadval).

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi

3-jadval. Regressiya modeli parametrlarining baholash natijalari (koeffitsientlar va ularning statistik ahamiyatligi)<sup>4</sup>

	Koeffi sientlar	Standart xatolik	t-statis tika	“R” Ahamiyati	Quyi 95%	Yuqori 95%	Quyi 95,0%	Yuqori 95,0%
Y-o'zgaruvchi	1,022343	0,021319	47,9556	4,91E-113	0,98031	1,064376	0,98030995	1,064375769
0,6264	-0,97697	0,019105	-51,136	2,73E-118	-1,014639	-0,939301	-1,01463868	-0,9393005
0,073999	-0,97175	0,044484	-21,845	2,581E-55	-1,059456	-0,88404	-1,05945634	-0,88404007
0,314294	-0,0051	0,021441	-0,2377	0,8123137	-0,047371	0,037176	-0,04737113	0,037176119
0,101861	-0,45917	0,104332	-4,401	1,736E-05	-0,664875	-0,253461	-0,66487502	-0,25346149

Bu jadvalda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy ko'rsatkich — bu “R-ahamiyati” (p-value) hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich 0,05 dan kichik bo'lsa, tahlil qilinayotgan mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchiga statistik jihatdan ahamiyatli ta'siri mavjud deb hisoblanadi. Bizning tahlil natijalariga ko'ra, faqatgina «X3» mustaqil o'zgaruvchining «Y» bog'liq o'zgaruvchiga ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli emas yoki juda past darajada ekanligi aniqlanadi.

Shundan kelib chiqib, regressiya natijalari asosida quyidagi model shakllantirildi:

$$Y = 1,022 - 0,98X_1 - 0,97X_2 - 0,46X_4$$

Mazkur modeldan ko'rinib turibdiki, bog'liq o'zgaruvchi (Y) va mustaqil o'zgaruvchilar (X1, X2, X4) o'rtasida teskari bog'lanish mavjud.

Demak:

– daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 1 birlikka oshishi likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,98 birlikka kamayishiga olib keladi;

– daromad keltirmaydigan aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 1 birlikka oshishi likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,97 birlikka kamayishiga olib keladi;

– jami kapitalning jami passivlardagi ulushining 1 birlikka oshishi likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,46 birlikka kamayishiga olib keladi.

O'rganish va tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining likvidligini samarali tartibga solishda riskka ta'sir etuvchi salbiy omillarni minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Bazal qo'mitasi tavsiyalariga ko'ra, likvidli aktivlar zaxirasi 30 kunlik inqiroz ssenariysi asosida ehtiyotkorlik tamoyiliga muvofiq shakllantirilishi lozim. Likvidlikni tartibga solishda quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$P_t = A_t : S_t \geq 100 \quad (2)$$

bunda:

$P_t$  — likvidlikni qoplash me'yori (Liquidity Coverage Ratio);

$A_t$  — yuqori likvidli aktivlar hajmi;

$S_t$  — keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim.

Bazal qo'mitasi likvidlikni qoplash me'yorlari uchun bosqichma-bosqich minimal tavsiyaviy talablarni belgilagan. Unga ko'ra, 01.01.2015 yildan 60 foiz, 01.01.2016 yildan 70 foiz, 01.01.2017 yildan 80 foiz, 01.01.2018 yildan 90 foiz hamda 01.01.2019 yildan boshlab 100 foiz miqdorida joriy etilgan [11].

Sof barqaror moliyalashtirish me'yorini joriy etishning asosiy maqsadi — bankning riskli aktivlarini o'rta va uzoq muddatli barqaror moliyaviy manbalar hisobidan ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur yo'nalish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari uchun sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (SBMMK) talablari “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom asosida belgilangan. Unga ko'ra, SBMMK 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Tijorat banklari 2018-yil 1-yanvardan boshlab ushbu me'yorni bajarishi shartligi belgilangan.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$SBMMK = BMMS : BMZS \quad (3)$$

bu yerda:

BMMS — barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi;

BMZS — barqaror moliyalashtirishning zarur summasi.

Mazkur ko'rsatkichning eng kam me'yori 1,0 yoki 100 foiz etib belgilanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aktiv va majburiyatlarni boshqarish. Aktiv va majburiyatlarni boshqarish bankning foiz stavkasi riskini nazorat qilish hamda rentabellikni optimallashtirish maqsadida aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon aktiv va majburiyatlarining muddati hamda qayta baholanish xususiyatlarini muvofiqlashtirish, xedjlash maqsadida derivativ vositalardan foydalanish hamda ehtimoliy risk va zaifliklarni aniqlash uchun stress-testlar o'tkazishni qamrab oladi.

4 Muallif ishlanmasi




Kapitalning yetarliligi. Banklar potensial yo'qotishlarni qoplash va prudensial talablarni bajarish uchun yetarli kapital darajasini ta'minlashi zarur. Shu maqsadda ular o'z risk darajasi va kapital yetarliligi koeffitsientini muntazam baholab borishlari lozim. Zarurat tug'ilganda qo'shimcha kapital jalb qilish yoki risklarni kamaytirish choralarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank kapitali bank faoliyatini boshlashning asosi, uning to'lov qobiliyatini ta'minlovchi himoya mexanizmi hamda faoliyat ko'lamini belgilovchi manba hisoblanadi. Birinchidan, bank ta'sischilari tomonidan minimal kapital talablari darajasida mablag' shakllantirilishi uning faoliyat yuritishi uchun zaruriy shartdir. Ikkinchidan, bank kapitali muammoli aktivlar yoki valyuta operatsiyalaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratishga imkon beradi. Bu esa bankning to'lovga qobiliyatligini barqarorlashtiradi. Uchinchidan, kapital hajmi bankning aktiv operatsiyalarini kengaytirish va muvofiqlashtirish imkoniyatini belgilaydi. Markaziy bank tomonidan kapital yetarliligiga qo'yiladigan talablar ham bank aktivlari hajmining o'z kapitaliga mos ravishda shakllantirilishini nazarda tutadi.

To'rtinchidan, bank resurslari tarkibida uzoq muddatli (5–10 yil va undan ortiq) jalb qilingan mablag'lar ulushining pastligi uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish hamda mijozlarning uzoq muddatli kreditlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Har bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'lishini inobatga olgan holda, bank kapitali ham ko'p qirrali vazifalarni bajaradi [12].

Risklarni boshqarish. Tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarish moliyaviy resurslarni boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Banklar kredit riski, bozor riski, operatsion risk va likvidlik riskini qamrab oluvchi kompleks risk-menejment tizimiga ega bo'lishi lozim. Bu risklarni baholash, limitlar belgilash hamda diversifikatsiya, sug'urta va boshqa himoya mexanizmlarini qo'llashni o'z ichiga oladi.

Bank risklari turlari odatda bir necha yirik guruhlariga ajratiladi. Ularning ichida bevosita bank faoliyati bilan bog'liq risklar ustuvor ahamiyat kasb etadi va bankning moliyaviy barqarorligi hamda likvidligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.



1-rasm. Bank risklari turlarini tasniflanishi [13].

Hozirgi kunga kelib, moliya-kredit tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan tijorat banklarida risklarni boshqarishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Chunki bank resurslarining qariyb 90 foizi jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllanadi. Bu esa aktivlarga joylashtirilgan mablag'larning qo'shimcha daromad bilan to'liq va o'z vaqtida qaytishini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi. Biroq ushbu jarayon tabiatan ma'lum darajadagi risklar bilan bog'liq bo'lib, risk darajasi oshgan taqdirda bankning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek mijozlar, omonatchilar, investorlar va aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish jarayonida ayrim murakkabliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin [14].

Xarajatlarni nazorat qilish: Xarajatlarni oqilona boshqarish rentabellikni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Banklar budjetlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish orqali xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirishlari lozim. Mazkur jarayon operatsiyalarni takomillashtirish, raqamli innovatsiyalarni keng joriy etish hamda inson resurslaridan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Tijorat banklari faoliyati jarayonida turli xil xarajatlarni amalga oshiradi, shu bois ayniqsa operatsion xarajatlar bo'yicha tizimli nazoratni yo'lga qo'yish dolzarbdir. So'nggi yillarda operatsion xarajatlarni optimallashtirish maqsadida banklar filiallar tarmog'ini maqbullashtirish, dasturiy ilovalardan kengroq foydalanish hamda masofaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Tijorat banklari xarajatlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- bankning moliyaviy resurslarini shakllantirish va asosiy faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar;
- bank imijini mustahkamlash hamda xizmatlar turlarini kengaytirish bilan bog'liq xarajatlar;
- boshqa xarajatlar [15].



Investitsiyalar va aktivlarni boshqarish: Tijorat banklari odatda turli moliyaviy vositalarga, jumladan, davlat obligatsiyalari, korporativ qarz majburiyatlari va aksiyalarga investitsiya kiritadilar. Shu bois banklar diversifikatsiyani ta'minlovchi, emitentlarning kreditga layoqatligini baholashga asoslangan aniq investitsiya siyosati hamda risk ishtahasiga ega bo'lishi zarur. Aktivlarni samarali boshqarish portfelni muntazam monitoring qilish, qayta baholash va bozor sharoitlariga mos ravishda zarur tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi.

Normativ hujjatlarga muvofiqlik: Banklar moliya organlari tomonidan belgilangan prudensial talablar va tartibga solish me'yorlariga qat'iy rioya qilishlari lozim. Muvofiqlik kapital yetarliligi koeffitsientlari, likvidlik talablari, hisobot majburiyatlari hamda risklarni boshqarish standartlariga amal qilishni o'z ichiga oladi. Normativ-huquqiy o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish va tartibga soluvchi organlar bilan ochiq hamkorlikni davom ettirish bank barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Stress testi va stsensariy tahlili: Banklar noqulay bozor sharoitlari yoki iqtisodiy zarbalar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarga chidamlilik darajasini baholash uchun stress-test va stsensariy tahlillarini o'tkazishlari zarur. Ushbu usullar potensial zaif tomonlarni aniqlash, kapital yetarliligi baholash va risklarni boshqarish bo'yicha favqulodda choralarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Monitoring va hisobot: Moliyaviy natijalarni, jumladan, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda prudensial indikatorlarni muntazam monitoring qilish bank boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Moliyaviy ma'lumotlar bo'yicha manfaatdor tomonlarga, xususan, aksiyadorlar, nazorat organlari va reyting agentliklariga aniq, ishonchli hamda o'z vaqtida hisobot taqdim etish shaffoflikni ta'minlaydi va ishonchni mustahkamlaydi.

Strategik rejalashtirish: Banklar o'zining uzoq muddatli maqsadlariga mos keluvchi kompleks strategik rejalarni ishlab chiqishi zarur. Bunda bozor kon'yunkturasi, raqobat muhiti, texnologik yutuqlar hamda mijozlar ehtiyojlaridagi o'zgarishlar inobatga olinishi lozim. Strategik rejalashtirish banklarga moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, bank resurslarini boshqarishni moliyaviy mexanizmning rejalashtirish va nazorat elementlari orqali asoslash jarayonida, avvalo, resurslarni rejalashtirishning strategik hamda taktik jihatlariga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish odatda kamida 2–10 yilga mo'ljallangan holda ishlab chiqiladi. Bunda asosiy e'tibor resurslarni jalb etish va joylashtirishni muddatlar kesimida muvozanatlashtirish, mijozlar tarkibini shakllantirish hamda resurslarni omonatchilar va mijozlar segmentlari bo'yicha diversifikatsiyalash masalalariga qaratiladi.

Iqtisodiyotning o'tish davrida tijorat banklari resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish usuli iqtisodiy va siyosiy risklarni minimallashtirish, shuningdek bankning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik rejalashtirish jarayonida raqobat strategiyasi, ixtisoslashgan strategiya hamda moslashuvchanlik strategiyalaridan samarali foydalanish banklarning resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan raqobat mexanizmi beqaror va o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda to'liq namoyon bo'lmashligi mumkin. Shunga qaramay, bank resurslarga bo'lgan ehtiyojini samarali ta'minlay oladigan raqobat strategiyasiga ega bo'lishi zarur.

Tijorat banklari resurslarini boshqarishda ixtisoslashgan strategiya bankning muayyan tarmoq yoki yo'nalish doirasida resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratiladi. Ushbu strategiya mijozlarni segmentlash, ularning ehtiyojlarini aniqlash va bank xizmatlariga bo'lgan talabni qondirishni nazarda tutadi.

Moslashuvchanlik strategiyasi esa o'tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga, jumladan Markaziy bankning pul-kredit siyosati, hukumatning fiskal va iqtisodiy siyosatidagi yangilanishlarga tezkor moslashishni ko'zda tutadi. Mazkur o'zgarishlarga tez moslashish orqali bank likvidligini saqlab qolishi hamda daromadlar barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Taktik rejalashtirish odatda olti oydan bir yilgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi va strategik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Tijorat banklari resurslarini boshqarishda taktik rejalashtirishning asosiy maqsadi aniq vazifalarni bajarishga qaratiladi. Bu vazifalar, odatda, qisqa muddatli bo'lib, strategik rejalashtirishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Taktik rejalashtirish jarayonida resurslarni jalb etish va joylashtirish usullari, maqsadga erishish yo'llari, muddatlari hamda kutilayotgan moliyaviy natijalar aniq belgilab olinadi.

Ma'lumki, tijorat banklari resurslarini shakllantirish bevosita moliyaviy xarajatlarni talab etadi. Shu bois resurslarni boshqarishda moliyaviy rejalashtirish muhim o'rin tutadi. Bunda tijorat banklari xarajatlarning miqdorini rejalashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy mezon sifatida jalb qilingan mablag'larga to'langan xarajatlar bilan ushbu mablag'larni aktiv operatsiyalarga joylashtirish natijasida olinayotgan daromadlar o'rtasidagi farq e'tiborga olinadi. Agar ushbu farq ijobiy bo'lsa, bu bank resurslarini boshqarishda moliyaviy rejalashtirish samarali tashkil etilganligini anglatadi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda moliyaviy rejalashtirishni ishlab chiqishning ikki asosiy usuli mavjud. Birinchisi – moliyaviy rejalashtirishni “yuqoridan pastga” tamoyili asosida amalga oshirish usuli.



Bunda bank rahbariyati moliyaviy xarajatlarning iqtisodiy jihatdan maqbul chegaralarini belgilaydi va shu asosda tegishli bo'linmalar o'z rejalarini ishlab chiqadilar. Mazkur usul iqtisodiyoti beqaror va tez o'zgaruvchanlikka moyil, raqobat mexanizmi hamda fond bozorlari yetarlicha rivojlanmagan mamlakatlarga xos bo'lib, amaliyotda muayyan darajada ijobiy natijalar bermoqda.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini rejalashtirishning ikkinchi — «pastdan yuqoriga» usulida talab va taklif omillari asosiy o'rin tutadi. Mazkur usul iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi uchun mamlakatda bozor mexanizmlari to'liq amal qilishi zarur. Aks holda ishlab chiqilgan reja amaliy natija bermasligi mumkin.

Tijorat banklari resurslarini boshqarish mezonlari va nazariy asoslarini tadqiq etish jarayonida ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan bank resurslarini boshqarish funksiyalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi kuzatiladi. Bu holat mazkur jarayonning nazariy jihatlarini to'liq yoritish zaruratini ko'rsatadi. Bank resurslarini boshqarishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning amal qilish mexanizmlarini aniqlash va asoslash orqali resurslarni boshqarish doirasida optimal moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Shu bois bank resurslarining o'ziga xos funksiyalari va elementlarini aniqlab, ularni bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklari resurslarini boshqarishda taqsimot va nazorat funksiyalarining mavjudligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish funksiyalariga tayanishdan asosiy maqsad bank likvidligini ta'minlash orqali uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Bu jarayon, avvalo, resurslarni boshqarishning taqsimot funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur funktsiyaning yetarli darajada ishlamasligi resurslarni boshqarishga bo'lgan rag'batning susayishiga va boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bank resurslarini boshqarishning taqsimot funksiyasi pul mablag'lari egalari manfaatlarini bilan uzviy bog'liqdir. Ular ma'lum shartlar asosida bankka taqdim etayotgan mablag'laridan qo'shimcha daromad olishni ko'zlaydilar. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bank resurslarini samarali boshqarishni rag'batlantirish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tijorat banklari resurslarini boshqarishning rag'batlantiruvchi omillariga mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, Markaziy bankning pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasi hamda boshqa makroiqtisodiy omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank rahbariyati ushbu omillarni inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishi resurslarni samarali boshqarish samaradorligini oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy manfaatdorlik xo'jalik yurituvchi subyektlarni harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur tamoyil tijorat banklari resurslarini boshqarishda ham dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli bank resurslarini tijorat asosida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari ularning samarali boshqarilishida muhim o'rin tutadi. Bank resurslarini tijorat tamoyillari asosida boshqarish aktiv operatsiyalar sifatida bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan shu operatsiyalar orqali banklar daromad shakllantiradi va resurslar taqsimotini amalga oshiradi [16].

Tijorat banklari resurslarini boshqarishning nazorat funksiyasi bankning to'lovga layoqatlilikini ta'minlash, likvid mablag'larga bo'lgan talabni qondirish, moliya bozoridagi iqtisodiy vaziyatni hamda banklararo raqobat muhitini monitoring qilishni o'z ichiga oladi. Mazkur funktsiya bankda tashkil etilgan tegishli qo'mita, departament yoki bo'linmalar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Uning iqtisodiy samarasi bankning mijozlar oldidagi majburiyatlarini to'liq va uzluksiz bajarishi hamda moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishi orqali namoyon bo'ladi.

Bank resurslarini boshqarish funksiyalarining yetarli darajada ishlamasligi resurslarni shakllantirish va ularni joylashtirish jarayonining tizimsiz amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda strategik rejalashtirish amaliyotda to'liq natija bermaydi va taktik rejalashtirish mavjud iqtisodiy vaziyatga moslashish bilan cheklanib qoladi.

Xalqaro bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari resurslarini boshqarish aniq mezonlar, strategik va taktik rejalar asosida amalga oshirilmasa, moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois bank resurslarini tizimli va ilmiy asoslangan boshqarish bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [17].

Umuman olganda, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish banklarning mahalliy moliya bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, aksiyadorlar va investorlar manfaatlarini himoya qilish hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank aktivlari likvidligi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mamlakat bank tizimining barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarilishini ta'minlash, uning ishonchligi va iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq mablag'larning yetarililigini belgilaydi.

Bank aktivlari likvidligini oshirishda va uni ta'minlashda Markaziy bank muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank monetar siyosat instrumentlari orqali bank aktivlari likvidligiga bevosita ta'sir o'tkazadi, tijorat banklari uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash orqali esa bank aktivlari likvidligini nazorat qiladi. Bank tizimi ishtirokchilari bo'lgan har bir tijorat banki Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarni bajarish orqali bank aktivlari likvidligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi.

Yuqoridagi tahlillar va ma'lumotlar asosida bank aktivlari likvidligini oshirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi orqali bank aktivlari likvidligini boshqaradi. Bunda Markaziy bank bank aktivlari likvidligi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda qayta moliyalashtirish stavkasini oshirish orqali tijorat banklari kreditlari va pul massasi o'sish sur'atini muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Aksincha, bank tizimida likvidli aktivlar ortiqcha bo'lgan holatda qayta moliyalashtirish stavkasini pasaytirish orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarni kredit olishga rag'batlantiradi hamda pul massasi va bank tizimi likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qayta moliyalashtirish stavkasining maqbul darajada belgilanishi milliy valyutaning jamg'arish vositasi sifatida jozibadorligini oshiradi. Bu esa tijorat banklariga aholining bo'sh mablag'larini depozitlarga jalb qilish imkonini yaratadi. Mazkur mablag'larni uzoq muddatli depozitlarga yo'naltirish bank tizimi likvidligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ochiq bozor operatsiyalari orqali Markaziy bank bank aktivlari likvidligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarining muomalaga chiqarilishi tijorat banklari aktivlarining ham daromadli, ham likvid bo'lishini ta'minlaydi. Natijada tijorat banklari o'z aktivlari tarkibida yetarli miqdorda likvid aktivlarni saqlashga rag'batlantiriladi. Jumladan, tijorat banklari "NOSTRO" hisobvaraqlaridagi mablag'larni davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirish orqali rentabellikni oshirish bilan birga likvidlikni ham mustahkamlashi mumkin.

Markaziy bank tijorat banklariga o'rnatilgan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash orqali tijorat banklari aktivlari likvidligini, shu orqali esa butun bank tizimi likvidligini barqaror nazorat qilib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring. Switzerland: Bank for International Settlements.
3. Азрилияна А. Большой экономический словарь. – М.: Институт новой экономики, 1999. – 852 с.
4. Бабаев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективного использования. Дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Т.: БФА, 2002.
5. Абдуллаева Ш., Каралиев Т., Ортиков У. Банк ресурслари ва уларни бошқариш. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2009. – Б. 48–49.
6. Обиджонов Ж., Азизов У. Молиялаштиришни такомиллаштириш йўлида // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 2000. – №4. – Б. 12–14; Симановский А.Ю. Достаточность банковского капитала // Деньги и кредит. – Москва, 2000. – №6. – С. 20–23; Косован К.С. Управление ресурсами в коммерческом банке // Деньги и кредит. – Москва, 2001. – №6. – С. 32–36; Мурычев А.В. О путях укрепления ресурсной базы российских коммерческих банков // Деньги и кредит. – Москва, 2003. – №11. – С. 48–52; Наврузов А. Пути повышения эффективности использования ресурсной базы коммерческих банков // Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 2002. – №9–10. – С. 10–12; Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореф. дисс. к.э.н. – Ташкент: БФА, 2002. – 21 с.
7. Банковское дело / Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 1998. – С. 68.
8. Абдуллаева Ш. Пул ва банклар. – Тошкент, 2010.
9. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 43 б.
10. Избосаров Б.Б. Рақамли иқтисодиётда тижорат банклари ликвидлигини тартибга солиш. Иқтисодиёт фанлари (PhD) бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТМИ, 2019. – 30 б.
11. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and liquidity risk monitoring tools. – January 2013. – P. 2.
12. Эгамова М.Э. Тижорат банклари капиталлашув даражасини оширишда даромаднинг роли. Иқтисодиёт фанлари (PhD) бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТМИ, 2019. – 30 б.
13. Нафасов Д.Б. Тижорат банклари рискларини бошқаришнинг назарий ва амалий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари (PhD) бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТМИ, 2017. – 26 б.



14. Нафасов Д.Б. Тижорат банклари рискларини бошқаришнинг назарий ва амалий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари (PhD) бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТМИ, 2017. – 12 б.
15. Омонов А.А. Банклар ва банкларда ҳисоб. – Тошкент: “Akademiya”, 2006. Ўқув қўлланма, 1-нашр. – 92 б.
16. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация. – Тошкент: БМА, 2008. – Б. 21–22.
17. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2008. – 36 б.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)